QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA
BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHA
FORONEKS

BFQni nomi: FORONEKS
BFQ shakli: ichakda eruvchan qobiq bilan qoplangan tabletkalar
Tarkibi:
Har bir ichakda eruvchan qobiq bilan qoplangan tabletka quyidagilarni saqlaydi:
faol moddalar: pankreatin 300 proteolitik birligi - 120 mg, papain 90 FIP birligi - 30 mg, rutozid (rutin trigidrati) 50 mg, bromelin 225 FIP birligi - 45 mg, tripsin 360 FIP birligi - 10 mg, lipaza 34 FIP birligi - 1 mg, amilaza 50 FIP birligi - 1 mg, ximotripsin 300 FIP birligi - 1mg.
yordamchi moddalar: metilparaben 1 mg, propil paraben 0,25 mg, mikrokristall sellyuloza 185,55 mg, PVPK-30 12,5 мг, etilsellyuloza 10 mg, magniy stearat 12,5 mg, talk kukuni 10 mg, EC-4S 27,5 mg, Crimson-4R bo'yog'i 2,5 mg, Yellow Orange bo'yog'i 1 mg.

Farmakologik xususiyatlari
Farmakodinamikasi
Ushbu mahsulot proteolitik fermentlar va bioflavonoid (rutozid) ning ilmiy ishlab chiqilgan kombinatsiyasi bo'lib, ular sinergetik ta'sir ko'rsatib, tananing yallig'lanishga bo'lgan tabiiy reaksiyasini qo'llab-quvvatlaydi, to'qimalarning tiklanishiga yordam beradi, shuningdek, qon aylanishi va immunitetni yaxshilashga ko'maklashadi.
Proteolitik fermentlar (pankreatin, tripsin, ximotripsin, bromelin, papain) qon tomirlari va shikastlangan to'qimalardagi yallig'lanish oqsil komplekslari va fibrinni parchalashga yordam beradi.
Rutozid qon tomirlari salomatligini bir maromda saqlab turadi va antioksidant sifatida ta'sir ko'rsatib, kapillyarlarni stabillashtiradi va oksidlovchi stressni kamaytiradi.
Lipaza va amilaza yog'lar va uglevodlarning parchalanishiga yordam berib, ovqat hazm qilish funksiyasini bir maromda saqlab turadi.

Qo'llanilishi
Ichakda eruvchan qobiq fermentlarning me'dadan o'zgarmagan holda o'tishini va ingichka ichakda so'rilishini ta'minlaydi.
Ushbu qo'shimchani quyidagi holatlarda yordamchi terapiya sifatida qo'llash mumkin:
- Bo'g'im va mushaklar funksional holatini yaxshilashda (masalan, artrit, tendinit);
- Yumshoq to'qimalar holatini yaxshilashda (masalan, paylar cho'zilganda, lat yeganda, cho'zilganda);
- Operatsiyadan keyingi shishdan keyin tiklanishni qo'llab - quvvatlashda;
- Surunkali yallig'lanishdagi holatni yaxshilashda;
- Venalarning varikoz kengayishi, gemorroy va qon tomirlarining mo'rtligida bir maromda saqlab turuvchi terapiyada;
- Ovqat hazm qilish fermentlarini normallashtirishda (yordamchi rol) qo'llaniladi.

Qo'llash usuli va dozalari
Kattalarga: kuniga 2-3 tabletkadan.
Och qoringa (ovqatdan kamida 45 daqiqa oldin yoki ovqatdan 2 soat o'tgach) qabul qilinadi.
Tabletkalarni butunligicha suv bilan yutib yuborish kerak.
Chaynamaslik va maydalamaslik kerak.
Dozalash dietolog tomonidan individual ehtiyojlarga qarab o'zgartirilishi mumkin.

Nojo'ya ta'sirlar
Odatda yaxshi qabul qilinadi. Kam uchraydigan nojo'ya ta'sirlarga quyidagilar kiradi:
- MIY (ko'ngil aynishi, meteorizm, diareya);
- Teri toshmasi yoki allergik reaksiyalar;
- Og'iz bo'shlig'i yoki tomoqning ta'sirlanishi (kam hollarda).

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar
Mahsulotning har qanday komponentiga ma'lum bo'lgan yuqori sezuvchanligida.
O'tkir oshqozon yarasi kasalligida.
Og'ir jigar yoki buyrak yetishmovchiligida qo'llash mumkin emas.
Qon ivishining buzilishi yoki bir vaqtning o'zida antikoagulyantlarni (masalan, varfarin) qabul qilish - ehtiyotkorlik bilan qo'llaniladi.
Homiladorlik va laktatsiya - faqat shifokor nazorati ostida.

O'zaro ta'sirlari
Antikoagulyantlar yoki antiagregant preparatlar ta'sirini kuchaytirishi mumkin.
Preparatni NYAQV yoki kortikosteroidlar bilan birgalikda qo'llashdan oldin shifokor bilan maslahatlashing.

Maxsus ko'rsatmalar
Shifokor tavsiyasisiz bolalarga tavsiya etilmaydi.
Allergik reaksiyalar paydo bo'lganda foydalanishni to'xtating va shifokorga murojaat qiling.
Oqsillarga (masalan, papaya, ananas yoki cho'chqa go'shti mahsulotlariga) allergiyasi bo'lgan patsiyentlarga ehtiyotkorlik bilan qo'llaniladi.
Homiladorlik va laktatsiya davrida qo'llash
Faqat shifokor tavsiyasi bilan ishlatish mumkin. Homiladorlik va emizish davrida qo'llashning xavfsizligi to'liq o'rganilmagan.

Ushbu mahsulot har qanday kasallikni tashxislash, davolash yoki oldini olish uchun mo'ljallanmagan.
Ovqatga biologik faol qo'shimcha dori vositasi hisoblanmaydi.

Chiqarilish shakli
20 tabletka blisterda.
10 blister qo'llash bo'yicha yo'riqnomasi bilan karton qutida.

Saqlash sharoiti
Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda, 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin.
Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati
2 yil.
Yaroqlilik muddati tugaganidan keyin qo'llanilmasin.

Arizachi:
O'zbekiston Respublikasidagi eksklyuziv distribyutor:
"SHAYANA FARM" MChJ

Ishlab chiqaruvchi:
Bajaj Nutraceuticals
Khasra No. 328M, Muza Raipur Industrial Area,
Raipur, Bhagwanpur, Roorkee, Haridwar,
Uttarakhand, 247661, Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori vositalarining sifati bo'yicha e'tirozlarni (takliflarni) qabul qiluvchi tashkilotning nomi va manzili
"SHAYANA FARM" MCHJ
O'zbekiston Respublikasi, 100098, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Qora-Qamish 1/4, Gulsaroy ko'chasi, 19 uy.
Tel.: +998 71 207 2191,92,93,95,96; Faks: +998 71 207 2194;
Uyali tel.: +998 90 830 7287
E-mail: pharmacovigilance@shayanafarm.com
Web-sayt: shayanafarm.com

TOSHKENT SHAHAR MA'MURIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAYANA FARM